



УДК: 321

*Ozod NASIMOV,*

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi*

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, falsafa fanlari doktori A.Q.Qodirov taqrizi asosida*

## THE MULTI-PARTY SYSTEM AS AN IMPORTANT INSTITUTIONAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

Annotation

A multi-party system is a multifaceted political and civil society institution that represents the interests of civil society and the state, the compliance of the country's political structure with generally accepted democratic criteria, a mechanism for strengthening and improving the political system of society. This scientific article analyzes the place and role of multi-party systems and political parties in society. The history of parties, definitions of parties given to parties in the scientific literature, the creation of the legal basis for multi-partyism in Uzbekistan and its significance are discussed.

**Key words:** Political party, civil society, modernization, pluralism, democracy, function, structure, dualistic.

## KO‘PPARTIYAVIYLIK TIZIMI FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM INSTITUTIONAL ASOSI SIFATIDA

Anotatsiya

Ko‘ppartiyaviylik tizimi fuqarolik jamiyati va davlat manfaatlarini ifoda etadigan ko‘p qirrali siyosiy va fuqarolik jamiyati instituti, mamlakat siyosiy tuzilmasining demokratik mezonlarga mos kelishi ko‘rsatkichlaridan biri, jamiyatning siyosiy tizimini mustahkamlash va takomillashtirish mexanizmi hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolada Ko‘ppartiyaviylik va siyosiy partiyalarning jamiyatda tutgan o‘rni va roli tahlil qilinadi. Partiyalarning tarixi, ilmiy adabiyotlarda partiyalarga berilgan ta’riflar, O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylikning huquqiy asoslarining yaratilishi va uning ahamiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Siyosiy partiya, fuqarolik jamiyati, modernizatsiya, plyuralizm, demokratiya, funktsiya, struktura, dualistik.

## МНОГОПАРТИЙНАЯ СИСТЕМА КАК ВАЖНАЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

Многопартийная система – многогранный политический и гражданско-общественный институт, представляющий интересы гражданского общества и государства, соответствия политического устройства страны общепринятым демократическим критериям, механизм укрепления и совершенствования политической системы общества. В данной научной статье анализируется место и роль многопартийности и политических партий в обществе. Обсуждаются история партий, определения партий, данные партиям в научной литературе, создание правовых основ многопартийности в Узбекистане и ее значение.

**Ключевые слова:** Политическая партия, гражданское общество, модернизация, плюрализм, демократия, функция, структура, дуалистический.

**Kirish.** Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonida ko‘ppartiyaviylikka asoslangan siyosiy tizim muhim ahamiyatga ega. Ko‘ppartiyaviylik tizimi fuqarolik jamiyati va davlat manfaatlarini ifoda etadigan ko‘p qirrali siyosiy va fuqarolik jamiyati instituti, mamlakat siyosiy tuzilmasining demokratik meyorlarga mos kelishi ko‘rsatkichlaridan biri, jamiyatning siyosiy tizimini mustahkamlash va takomillashtirish mexanizmidir.

Milliy va xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan ko‘ppartiyaviylik tizimi, siyosiy partiyalar hamda fuqarolik institutlarining yetukligi va faolligi, fuqarolarning yuksak darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyati jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ma’lumki, ko‘ppartiyaviylik davlatning siyosiy tizimida ishtirok etadigan ikki va undan ortiq partiyalarning mavjudligi va ular o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurashlar jarayoni hisoblanadi. Ayni shu tizimda jamiyat va davlat o‘rtasida ikki tomonni bog‘lovchi va

fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo‘lgan siyosiy partiyalarning o‘rni o‘ziga xos hisoblanadi. Siyosiy partiyalar ko‘ppartiyaviy tizimning asosiy elementi bo‘lib, ularning jamiyat rivojidagi o‘rnini ko‘rib chiqish ko‘ppartiyaviylikning fuqarolik jamiyatining institutsional asosi sifatida o‘rganish jarayonidagi asosiy nuqtalardan hisoblanadi.

"Partiya" (lotincha pars, partio, fransuzcha parti, nemischa partei, inglizcha party - qism, guruh, bo‘lak, ajrataman)[2] atamasi siyosiy partiyalar paydo bo‘lishidan ancha oldin aholining muayyan qismining manfaatlarini ifodalovchi fuqarolar guruhlarini belgilashga va ushbu maqsadlar uchun hokimiyatga ta’sir ko‘rsatishga harakat qilishda ishlatilgan.

XX asr boshlarida siyosiy partiya keng qamrovli ta’rifini bergan M.Y.Ostrogorskiyga ko‘ra: partiya bu "... siyosiy maqsadga erishish uchun birlashgan individlar guruhidir"[3].

T.Bersel esa, siyosiy partiyalar jamiyatda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashi asnosida siyosiy tarmoqni shakllantiradi. Siyosiy tarmoq bu – siyosatda umumiy manfaatlar asosida birlashgan va mazkur manfaatlarni ilgari

surish uchun o'zaro resurslar almashadigan aktorlar yig'indisi hisoblanadi. Bunda ijtimoiy va siyosiy kooperatsiya umumiy maqsadlarga erishishning eng to'g'ri va samarali yo'li hisoblanadi.[4] deya e'tirof etadi.

1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasiga ko'ra, siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashma hisoblanadi[5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Umuman olganda, siyosiy partiyalar demokratik institut sifatida turli xil ijtimoiy guruhlar va jamiyat segmentlarining manfaatlarini umumlashtirish, uyg'unlashtirish vazifasini o'taydi, shuningdek, fuqarolarning siyosiy ishtiroki rivojlantirishga yordam beradi hamda jamoatchilik fikrini, siyosiy yo'nalishlarni, mafkuralarni shakllantiridagi ahamiyati esa nihoyatda katta.

Shuning bilan birga, zamonaviy siyosiy tizimlarda siyosiy partiyalar davlat va jamiyat hayotida bir qator muhim vazifalarni (funksiyalarni) bajaradilar. Jumladan;

- birinchidan, bu artikulyatsiya va manfaatlar yig'indisi funksiyalari. Agar turli xil bosim guruhleri artikulyatsiya funksiyasini muvaffaqiyatli bajara olsa, siyosiy partiyalar agregatsiya funksiyasini deyarli to'liq anglaydilar.

- ikkinchidan, siyosiy ijtimoiylashuv funksiyalari. Partiyalar faoliyatida (ham faol, ham passiv) ishtirok etish orqali fuqarolar tegishli siyosiy tajribaga ega bo'ladilar hamda kelajakdagi siyosiy amaliyotlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'rganadilar.

- uchinchidan, siyosiy elita va siyosiy rahbarlarni yollash funksiyalari. Zamonaviy sharoitda muvaffaqiyatli partiyaviy tajriba siyosiy hokimiyatga malakali kadrlarni yetkazib beradi.

- to'rtinchidan, fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlash funksiyasi. Ya'ni siyosiy partiyalar jamiyatning siyosiy tizimidagi guruhlar va ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini ifoda etuvchi tashkilot sifatida fuqarolik jamiyati uchun zarur bo'lgan aloqa instituti (jamiyat va davlat o'rtasida) vazifasini ham bajaradi[6]. Agarda, fuqarolik jamiyatining tuzilishi oila, maktab, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, mustaqil matbuot, vakillik va to'g'ridan-to'g'ri demokratiya institutlari, ta'lim va tarbiya tizimi, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, o'rta sinflar va barcha nodavlat tuzilmalar, muassasalar munosabatlarining garmoniyali harakatidan iborat bo'lsa, aynan shu tizimda siyosiy partiyalar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Negaki, siyosiy partiyalar bugungi kunda demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan siyosiy xilma-xillik va ko'ppartiyaviylik tizimini shakllanishini taminlovchi fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida e'tirof etiladi.

**Tahlil va natijalar.** Umumiy olib qaraganda, fuqarolik jamiyati uchta yo'nalishni o'z ichiga oladi: huquqiy (qonun asosidagi tenglik), siyosiy (umumiy ovoz berish) va ijtimoiy-iqtisodiy. Bu o'rinda fuqarolik jamiyatining siyosiy yo'nalishi aynan siyosiy partiyalar faoliyati bilan uzviy bog'liq. Chunki inson siyosiy iroda erkinligini his qiladigan jamiyat, ya'ni fuqarolik jamiyati, o'z mohiyatiga ko'ra siyosiy prinsipning tashuvchisidir va uning normal ishlashini siyosiy harakatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivoji siyosiy tizimning demokratik mazmunini yanada to'ldirishi, siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat hayotidagi rolining o'sib borishi, siyosiy va ijtimoiy xilma-xillikning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Siyosatshunos olim M.Qirg'izboyev, fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatini siyosiy tizim bilan o'zaro aloqalarining doimiylikini ta'minlaydi, davlat hokimiyatining jamiyatga bog'liqligi va uning jamiyat tomonidan nazorat qilinishi ko'p hollarda siyosiy partiyalar orqali amalga oshiriladi[7], deydi.

Siyosiy partiyaning ikki tomonlama tabiati o'zining normativ o'lchoviga ega. Bir tomondan, partiyaning fuqarolik jamiyati instituti ekanligi unga barcha turdagi fuqarolik jamiyati institutlariga xos bo'lgan tashkil etish va faoliyat prinsiplarini joriy qilishni anglatadi. Boshqa tomondan, partiyaning asosiy maqsadi, uning jamiyatning siyosiy hayotidagi ishtiroki ekanligi va boshqa fuqarolik jamiyati institutlaridan ajratib turishida namoyon bo'ladi. V.V. Lapayevaga ko'ra, "bir tomondan, partiya fuqarolik jamiyati instituti, ya'ni davlat hokimiyatidan mustaqil xususiy sektor munosabatlarining strukturaviy elementi sifatida namoyon bo'ladi, boshqa tomondan, u davlat - siyosiy tizimining bir qismi sifatida ishlaydi"[8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining (siyosiy) tarkibiy qismi sifatida "dualistik"(ikki ko'lamli) tuzilishga ega bo'lgan murakkab tuzilmalardir. Ularning bir qismi jamiyat darajasida, boshqasi esa davlat darajasida (parlamentda, hukumatda) ishlaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, siyosiy partiyalarning asosiy vazifalari sifatida davlat boshqaruvida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlash; o'z elektorati hamda butun jamiyat manfaatlarini ilgari surish; davlat va jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan muqobil loyiha (dastur)lar ishlab chiqish kabi ko'plab funksiyalarni bajarib keladi[9].

Shuningdek, fuqarolik jamiyati tizimida siyosiy partiyalar quyidagi funksiyalarni ham bajaradilar:

Birlashtirish. Ushbu funksiyada siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatida fuqarolarning ma'lum maqsadlar atrofida birlashishini ta'minlaydi.

Transformativ. Ushbu funksiyani amalga oshirishda siyosiy partiyalar ko'plab xususiy manfaatlarini umumiy irodaga aylantiradi.

Qiyamatni belgilash. Ushbu funktsiya doirasida siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati subyektlarining qadr-qimmatini belgilab beradilar.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, yoshlar tashkilotlari va boshqa umumiy manfaatga yo'naltirilgan jamoat birlashmalari yordamida jamiyat o'zini o'zi shakllantiradi, siyosiy va g'oyaviy plyuralizm hamda ko'ppartiyaviylik fuqarolik jamiyatining siyosiy jihatdan institusionallashuvida muhim asos hisoblanadi[10].

Bir guruh ijtimoiy-gumanitar soha olimlarining umumiy fikriga ko'ra, agarda fuqarolik jamiyati mavjud bo'lmasa, demokratik partiyaviy tizim bo'lmaydi yoki aksincha. Darhaqiqat, fuqarolik jamiyati rivojlangan davlatni partiyaviy tizimsiz tasavvur qilish qiyin va demokratik ruhdagi partiyaviy tizim o'z o'rnida fuqarolik jamiyatini taraqqiyotida muhim institusional omillardan biridir. Demokratik partiyaviy tizim esa davlatning siyosiy tizimida bir nechta siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun o'zaro raqobati asosida amalga oshadigan ko'ppartiyaviylik bilan bog'liq.

"Siyosiy tizimda ko'ppartiyaviylik qaror topgan taqdirdagina davlat xalq manfaatlarini ifoda eta olishi, umummilliy manfaatlarini, sinflar, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ustunligini ta'minlay olishi va jamiyatdagi barqarorlikning mustahkam negizini tashkil qila olishi mumkin"[11], – deb ta'kidgan M.Dyuverje.

Bizningcha, ko'ppartiyaviylik sharoitida fuqarolik jamiyati rivojiga hizmat qiladigan bir qator omillar shakllanadi:

- birinchidan, hokimiyatga erishish va uni boshqarish uchun tabiiy kurashning ochiq va oqilona shakli paydo bo'ladi;

- ikkinchidan, ma'lum muddatlarda o'tkaziladigan parlament va prezident saylovlarida siyosiy partiyalarning faol ishtiroki asosida hokimiyatni taqsimlash, qayta taqsimlash jarayonlari amalga oshirilib, bunda jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hukmron elita yangilanadi va o'zgartiriladi;

- uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va islohotlar strategiyasi ishlab chiqiladi hamda eng muhimi, raqobatdosh siyosiy muhit vujudga kelib, bu hokimiyatni monopollashtirish va haddan tashqari markazlashtirish tendensiyalarini, shuningdek, har qanday suiiste'mollik holatlari va fuqarolar siyosiy begonalashuvining oldi olinadi.

Amerikalik siyosatshunos K. Lausonning ta'kidlashicha, 1970-yillarning oxirlarida dunyo bo'yicha 100 dan ortiq mamlakatlarda 500 dan ortiq partiyalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, yangi asrda dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarida ularning soni mingga yaqinni (Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Norvegiyada rasmiy ro'yxatdan o'tgan 20 ta, Shvetsiyada 30 ta; Fransiyada 40 ta, Chexiya Respublikasida 120 tadan ortiq partiyalar ro'yxatga olingan va bir qator harakatlar mavjud)[12] tashkil etadi. Bu o'z navbatida hozirda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'ppartiyaviylikka asoslangan tizimning mavjudligi hamda ushbu mamlakatlardagi mavjud siyosiy tizim hususida qisman fikr yuritishga imkon beradi.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan iclohotlap japyonida ciyociy paptiyalarning poli va o'pni yanada kuchayib bopmoqda. Mamlakatimizda faoliyat olib bopayotgan O'zbekicton Libepal demokpatik paptiyaci, "Milliy tiklanish" demokpatik paptiyaci, Xalq demokpatik paptiyaci, "Adolat" cotsial demokpatik paptiyaci, "Ekologik paptiya"lapi o'z oldiga qo'ygan dactupiy maqcadlapni amalga oshipish, elektopat bilan ishlash tizimini takomillashtipish, o'zlapining caylab qo'yilgan vakillapi – deputatlik koppuci opqali qonun ijodkoplugini yanada takomillashtipishga e'tibop bepishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakatning o'ziga xos siyosiy xayotiga ko'ra bir partiyaviy, ikki partiyali va ko'p partiyali tizimlar shakllanadi. Ko'ppartiyaviylik omilining afzalligi shundaki, siyosiy partiyalar mamlakatdagi turli xil maslak, fikr, karash va manfaatlarni anglashda o'ziga xos dunyokarash, munosabat tamoyillari bilan farqlanadigan ijtimoiy guruh katlamlarini birlashtirib, ularga tayangan holda mamlakat oldida turgan umumiy maksad yulida mamlakat har bir fukarosining xohish-irodasini, haq-huquqlarini, erkinliklarini ximoya kiladi.

Qolaversa biz uchun ko'ppartiyaviylik siyosiy partiyalarning mamlakatda amalga oshrilayotgan islohotlarda faol ishtirokini amalga oshirishga imkon beruvchi muhitni shakllantirish bilan bevosita bog'liq ekanligi bilan ahamiyatlidir. Aynan ko'ppartiyaviylik tizimining mavjud holati, uning taraqqiyot yo'nalishlari ko'p jhtdan siyosiy partiyalarning jamiyatdagi mavqeni belgilovchi faktori bo'lib, uning tahlili esa O'zbekistonda siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida tutgan o'rni qanday bo'lishi. Qanday yo'nalishlarda rivojlanishi mumkinligini tushunib olishga hizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мамадалиев Ш, Джавакова Қ. Кўппартиявийлик тизimini изчил ривожлантириш — давлат ҳокимиятини демократлаштиришнинг муҳим шarti // <http://old.xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/767-koppartiyaviylik>
2. Словарь юридических латинских терминов и выражений [Текст] М.: 1999.— С. 86.
3. Вагина Л. С. Теоретические основы исследования деятельности политических партий как субъекта политики в современной России. [http://vestnik.osu.ru/2011\\_5/8.pdf](http://vestnik.osu.ru/2011_5/8.pdf)
4. Tanja A. Borzel. Organizing Babylon – On the Different Conceptions of Policy Networks//Public Administration. 1998, p. 253–273.
5. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон
6. Ланцов С. А. Политология: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2011. —С.287.
7. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий таъриба. Тошкент: Янги аср авлоди,2006. – Б. 104.
8. Лапаева В.В. Право и многопартийность в современной России. М.: Норма,1999.— С 182.
9. Саидов С.Ш. Десять индикаторов развития гражданского общества в Узбекистане. // Alma Mater (Вестник высшей школы). №11/2018. – М., – С. 118.
10. Жалилов А, Муҳаммадиев У, Жўраев Қ ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма.. Тошкент. 2015.– Б.28.
11. Duverger M. Les parties politiques. – Paris, 1967. – P. 29.
12. Гришин Н.В. Партии как привилегированный субъект избирательного процесса: результаты институционального эксперимента // Политическая наука. 2015. № 1.– С. 17 (12–29).